



## AHЛИ SUNNA MAZHABLARI ORASIDA NIKOHGA OID HUKMLARDA URFNING O'RNI

**Abdul Shukur G'iyasi**

*O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi*

*"Islomshunoslik" ta'lif yo'naliishi 4-bosqich talabasi,*

*[abdulshukorghiiasi@gmail.com](mailto:abdulshukorghiiasi@gmail.com)*

Ilmiy rahbar: **B.Ahmedov**

*O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi*

*"Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini o'rGANISH ICESCO" kafedrasи*

*dotsenti, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

**Annotatsiya:** *Urf islomiy usul va fiqh ilmlarida jamiyat ahli tomonidan gap yoki amal tarzida odat tusiga kirgan, majburiy qoida sifatida e'tirof etilgan hodisadir. Bu hodisa aniqlangan amal, uning takrori va keng tarqalishi hamda ixtiyoriy ravishda bajarilishi kabi uchta unsurning yig'indisidan tarkib topadi. Urf aql-idrok, zarurat va manfaat, vahiy, hukmdorlar hukmronligi hamda shaxsiy maqsadlar kabi omillar ta'sirida yuzaga keladi.*

*To 'g'ri va barcha shartlarga javob beradigan nikoh akdi ikki tomon uchun huquq va majburiyatlar sababiga aylanadi. Jumladan, erkak tomonidan ayolga mehr to'lash majburiy bo'ladi. Mehr nikoh aqdi bilan er zimmasiga tushadigan moliyaviy majburiyat bo'lib, darhol to'lanadigan (*mu'ajjal*) va kechiktirilgan (*muvaqqat*) turlarga bo'linadi. Mehrning maksimal miqdori belgilanmagan, lekin minimal miqdorida ixtilof bor. Mehrning miqdorini urf belgilaydi. Mehrning vojib bo'lishi Qur'on, Sunnat va ijmo' bilan sobit bo'lgan.*

**Kalit so'zlar:** *urf, nikoh, mahr, fiqh, Imam abu Hanifa*

**Аннотация:** В исламских науках усуль аль-фикх и фикх «урф» — это явление, которое сложилось в обществе в форме речи или действия, признано обязательным правилом и стало привычкой. Это явление формируется из трёх элементов: наличие конкретного действия, его многократность и широкое распространение, а также выполнение его добровольно. Урф возникает под влиянием таких факторов, как разум и восприятие, необходимость и польза, божественное откровение, власть правителей и личные интересы.

Правильный и соответствующий всем условиям брачный договор становится причиной возникновения прав и обязанностей для обеих сторон. В частности, мужчина обязан выплатить женщине махр (брачное вознаграждение). Махр — это финансовое обязательство, которое ложится на мужчину при заключении брака. Он делится на немедленный (*му'аджал*) и отсроченный (*муваккат*) виды. Максимальный размер махра не ограничен, однако по поводу минимального существуют разногласия.



Размер маҳра определяется в соответствии с урфом. Обязательность маҳра подтверждена Кораном, Сунной и иджмой.

**Annotation:** In Islamic sciences of usul al-fiqh and fiqh, ‘urf refers to a phenomenon that, through speech or action, has become customary among members of a society and is recognized as a binding norm. This phenomenon consists of three elements: a specific practice, its repetition and widespread occurrence, and its voluntary performance. ‘Urf arises under the influence of factors such as intellect and perception, necessity and benefit, divine revelation, the authority of rulers, and personal interests.

A valid marriage contract that meets all the necessary conditions establishes mutual rights and obligations for both parties. Among these, the husband is obligated to pay mahr (dower) to the wife. Mahr is a financial obligation that falls upon the husband with the conclusion of the marriage contract. It is categorized into two types: immediate (*mu’ajjal*) and deferred (*muwaqqat*). While there is no maximum limit for mahr, scholars have differed regarding its minimum amount. The amount of mahr is generally determined by ‘urf. The obligation of mahr is established by the Qur'an, the Sunnah, and scholarly consensus (*ijma'*).

## KIRISH

Islom huquqi (fiqh) inson hayotining barcha sohalarini tartibga soluvchi mukammal tizimdir. Nikoh — bu oilaning asosidir va u jamiyat barqarorligining muhim omillaridan biridir. Nikohga oid hukmlarda fiqhiy qarorlar chiqarishda Qur'on, Sunnat, ijmo' va qiyos asosiy manba hisoblanadi. Biroq, fiqhda yana bir muhim manba – **урф** ham mavjud bo'lib, ayniqsa zamonaviy masalalarda muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqola ahli sunna mazhablarida nikohga oid masalalarda urfning o'rni va uning qanday tatbiq etilishini tahlil qiladi.

Islom shariatining asoslari va boshlang'ich tamoyillarini biladigan kishi, islomiy yoki fiqhiy tamoyillarni xalqning turli vaqtlardagi manfaatlarini hisobga olgan holda va ularning ehtiyojlarini qondirish asosida, turli millatlar va ularning mamlakatlarining masofasidan qat'iy nazar, topadi. Shariat har bir vaqt va joy uchun qo'llaniladigan keng qamrovli va moslashuvchan bo'lib, undan vaqt o'tishi bilan sodir bo'ladigan haqiqatlar va voqealar uchun fiqhiy hukmlar chiqariladi.

Shariatning asosi mukallaflarni rivojlantirish va ularga qiyinchilik tug'dirmaslikdir. Xalq uchun eng muhim qiyinchiliklardan biri shariat hukmlarida urname-odatlarga rioya qilishdir. To'g'ri urname-odatlar shariatda qonuniy dalil va shariat manbalaridan biridir. Illohiy hukmlarni chuqur o'rganish orqali biz, masalan, nikoh to'g'risidagi shartnoma va shariat tizimiga mos ravishda tuzilgan oila, fiqhiy hukmlar va har bir tomonning majburiyatlarini keltirib chiqarishini ko'ramiz.





## ASOSIY QISM

Urf qadim zamonlardan va davlatlar paydo bo‘lishidan oldin odamlar ijtimoiy hayotlarining muayyan jihatlarida ma’lum bir hatti-harakat ustida kelishuvga erishganlarida va bu harakat uzoq vaqt davomida ularning orasida davom etsa, u odat ustiga kiradi. Bu odat turli muhitlar, tizimlar, e’tiqodlar va diniy marosimlarga qarab farq qiladi. Urf so‘zining lug‘aviy va istilohiy ma’nolari haqida lug‘at ahli, faqihlar va sunniy usulchilar tomonidan turli fikrlar bildirilgan bo‘lib, quyida eng muhimlari

Urf lug‘atda bir qancha ma’nolarga ega bo‘lib, jumladan xulq, odat, odamlar orasida qabul qilingan va keng tarqalgan narsa, ma’lum bo‘lgan narsa (ma’ruf) va munkar (yomon)ning aksi sifatida qo‘llanilgan<sup>36</sup>.

Istilohda esa garchi faqihlar va usulchilar tomonidan qadimdan urf so‘zi ko‘p ishlatilgan bo‘lsa-da, unga aniq ta’rif berilmagan. Shunga qaramay, birinchi bo‘lib unga aniq ta’rif bergan olimlardan biri Abu Barakat Hofiziddin Abdulloh ibn Ahmad Nasafiy bo‘lib, u yettinchi hijriy asrda yashagan hanafiy faqih va muhaddisdir. Undan keyin fiqh va usul asarlarda turli ta’riflar berilgan bo‘lib, undan ba’zilarini.

a) Abdulloh ibn Ahmad Nasafiy: “Urf aql tomonidan qabul qilinib, inson qalbida o‘rnashib qolgan va pok fitrat tomonidan ma’qullangan narsadir.” Shu kabi ta’rifni Ali ibn Muhammad Jurjoni ham “Mu’jam at-Ta’rifot” kitobida bergan Muhammad Mustafo az-Zuhayli esa “Al-Vajiz fi Usul al-Fiqh al-Islamiy” asarida xuddi shu ta’rifni keltiradi<sup>37</sup>.

b) Abdulkarim Zaydan: “Urf jamiyat o‘rganib qolgan va ijtimoiy hayotida unga muvofiq amal qiladigan so‘z yoki harakatdir”<sup>38</sup>.

Urf ijtimoiy ehtiyojlar va qabilaviy hayotdan ke lib chiqqan ijtimoiy hodisadir. Insonlar bu odatlarni majburiksiz va ixtiyoriy ravishda qabul qilganlar. Bu ijtimoiy hodisa turli shakllarga ega bo‘lib, usul va fiqh fanlarida turli jihatlarga ko‘ra tasnif qilingan. Urf odamlarga bog‘liq ravishda ikki turga bo‘linadi: qavli urfi va amaliy urf.

Qavli (Lafziy) urfi Bu odamlarga ma’lum bir so‘zlarni lug‘aviy ma’nosidan boshqa ma’noda ishlatish odati bo‘lib, ushbu ma’no qo‘srimcha dalillarsiz tushuniladi. Bu holat “haqiqat urfiy” deb nomlanadi<sup>39</sup>. Masalan: “Valad” (bola) so‘zi Odamlar orasida bu so‘z faqat o‘g‘il bolani anglatadi, holbuki arab tilida u o‘g‘il va qiz farzand uchun ham ishlatiladi. Qur’onda bu so‘z umumiyligi ma’noda kelgan ﴿وَصِبَّكُمُ اللَّهُ فِي أَوْلَادِكُمْ لِذِكْرٍ مُثْلِحٌ لِلْأَنْثِيَنِ﴾ (Niso surasi, 11-oyat). (Alloh sizga farzandlaringiz haqida vasiyat etib, bir o‘g‘ilga ikki qiz nasibasicha berishni amr etadi)

Amaliy urf: Bu odamlarning odatiy hayotiy ishlarida yoki fuqarolik muomalalarida davomiyligi ravishda amal qiladigan odatidir. Odatiy ishlar bu shaxsiy va turmush tarziga tegishli harakatlar bo‘lib, ular ovqatlanish, ichimlik ichish, kiyinish, foyda olish usullari va mol-mulkni saqlash kabi masalalarni o‘z ichiga oladi. Masalan, ayrim mamlakatlarda

1. <sup>36</sup> Muhammad Mo‘in, Farhang-i Mo‘in, Amir Kabir Tehron – 4j. Tehron: Entesharat-e Elmi va Farhangi, 1351. – B. 267.

<sup>37</sup> Muhammad Mustafo Zahiliy, “Al vajuz fi usul al fiqh”. Suriya: Dar al-Maktabi, 2006. – B. 265.

<sup>38</sup> Zaydon, Abdulkarim., “Al vajuz fi usul al fiqh”. – Bag’dod: Maktabat al-Musanna, 1976. – B. 258.

<sup>39</sup> Abdulkarim Zidan, “Al-Vajiz fi Usul al-Fiqh” – Bag’dod: Maktabat al-Muthanna, 1976. – B. 258.



odamlar o‘z kasblariga mos maxsus kiyim kiyishadi. Islom mamlakatlarida ulamolar va din xodimlari alohida kiyim bilan ajralib turadi.

To‘rtta mazhab nuqtai nazaridan urfning hujjiyati Fiqh olimlari o‘z mazhablariga qarab urfning hujjiyati va unga e’tibor berish masalasida ko‘pincha ittifoq qilganlar. Ular urfning muhimligini tan olib, ko‘plab fiqhiy hukmlar uning ustiga qurilganligini e’tirof etganlar. Biroq, urfning hujjiyati va uning e’tiborga olinishi borasida dalillash usullarida farqlarga ega bo‘lishgan. Usuliy olimlar urfning hujjiyati borasida dalillar keltiradilar, quyida ularning har birini ko‘rib chiqamiz:

**Qur'on:** Urfning hujjiyati uchun eng muhim va mashhur oyatlar quyidagilardir: Alloh taolo A’rof surasi 199-oyatda aytadi: **خُذِ الْعُفْوَ وَأْمُرْ بِالْعُزْفِ وَأَعْرِضْ عَنِ الْجَاهِلِينَ** Kechirimli bo‘l, yaxshilikka buyur va johillardan yuz o‘gir. Dalil keltirish jihat: Olimlar ushbu oyatda keltirilgan “ma’ruf” so‘zining ma’nosini odamlarga odat bo‘lgan urf va ularning o‘zaro muomalalari deb tafsir qilganlar. Oyatda yaxshilikka buyurish amr qilingan bo‘lib, bu amr bekorga bo‘lishi mumkin emas. Demak, urfga amal qilish shariat tomonidan e’tiborga olingan.

**Sunnat :** Urfning hujjati uchun ikkinchi dalil - Payg‘ambarimiz (s.a.v.)ning sunnatlaridir. Bu ikki qismga bo‘linadi: Qavliy sunnat : Nabiy (s.a.v.) dedilar: Hadis: «**مَا رَأَهُ الْمُسْلِمُونَ حَسَنًا**» Musulmonlar chiroyli deb bilgan narsa, Alloh huzurida ham chiroylidir.” Ba’zi olimlar ushbu hadisdal urfning hujjiyati borasida dalil keltirib, shunday deydilar: “Agar biror amal musulmonlar orasida urf sifatida tan olinib, unga qarshi aniq shariat dalili bo‘lmasa, u foydali bo‘lib, qiyinchilikni ketkazadigan bo‘lsa, u shariat tomonidan e’tirof etiladi va unga amal qilinad<sup>40</sup>i.” Amaliy (fi’liy) sunnat : Oisha (r.a.) rivoyat qilgan hadis: **أَمَّا الْمُؤْمِنُونَ عَاهَشَهُ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهُمْ، أَنْ هَذِهِ بَنْتُ عُتْبَةَ، قَاتَلَتْ يَارَسُولَ اللَّهِ إِنَّ ابْنَ سَفَيَانَ رَجُلٌ شَحِيقٌ وَلَيْسَ يُعْطَيْنَى مَا يَكْفِيْنَى وَوَلَدِيْ، إِلَّا مَا أَخْذَثَ مِنْهُ وَهُوَ لَا يَعْلَمُ فَقَالَ: «خُذْهِ هَا يَكْفِيْكَ وَوَلَدِكَ بِالْمَعْرُوفِ».** Hind binti Utba Payg‘ambar (s.a.v.)ga aytidi: “Ey Allohning Rasuli! Abu Sufyon juda baxil odam. U menga va farzandlarimga yetarli narsani bermaydi. Men esa u bilmagan holda molidan olsam bo‘ladimi?” Payg‘ambarimiz (s.a.v.) aytdilar: “O‘zing va farzandlaringga yetadigan miqdorda ol, maruf (urfga muvofiq) tarzda.” Dalil keltirish jihat: Rasululloh (s.a.v.) Hindga urf va odatga ko‘ra yetarli bo‘lgan miqdorda olishi mumkinligini ochiq-oydin bayon qilganlar. Bu esa urfning hujjati borasida aniq dalildir.

**Hanafiy mazhabi:** Hanafiy mazhabida urfga katta e’tibor berilgan, uni mustahkam qoida sifatida qabul qilib, ko‘plab fiqhiy masalalarni undan istinbot qilganlar. Ayniqsa, shartnomalar va savdo-sotiq boblarida urf muhim ahamiyat kasb etgan. Bu tamoyil Imom Abu Hanifa va uning ikki asosiy shogirdi hamda ushbu mazhabning boshqa fiqhiy mutaxassislari tomonidan rivojlantirilib, keyingi davrlarga qadar davom etgan. Eng mashhur olimlardan biri bo‘lgan Imom Ibn Obidin bu borada ko‘plab asarlar yozgan. Bu

<sup>40</sup> Bosim Abdullohb Ubayd, “Athar al-‘Urf fi at-Tashri‘ al-Islami Dirasah Ta’siliyyah” – Misr: Jamiatu al Azhar, 2017– B. 32.



tamoyilning kuchi shunchalik katta bo‘lganki, uzoq asrlar davomida barcha Islom davlatlarida hanafiy qozilar va muftiylari o‘z hukmlarini berishda keng qo‘llaganlar<sup>41</sup>.

Molikiy mazhabi : Molikiy mazhabi urf va odatlarga eng ko‘p e’tibor bergan mazhablardan biri hisoblanadi. Hatto ushbu mazhabning ba’zi mashhur olimlari “urf” va “molikiy mazhabi” deyarli sinonimga aylangan darajada bu masalaga alohida urg‘u berishgan. Bularga Ibn al-Arabi, al-Qarofiy, al-Maqriy, al-Vansharisiy va Shotibiy kabi olimlarni misol qilish mumkin. Ibn al-Arabi : U Qur’oni Karimning «وَالْوَالِدَاتُ يُرْضِعْنَ أُولَادَهُنَّ» «حَوْلَيْنَ كَامِلَيْنِ» “Onalar bolalarini to‘liq ikki yil emizsinlar” (Baqara, 233) oyatini tafsir qilar ekan, shunday degan: “Agar ayol yuksak nasabga ega bo‘lib, urf bo‘yicha u bolani emizmasligi qabul qilingan bo‘lsa, unda uni majburlab bo‘lmaydi. Chunki urf shart kabi hisoblanadi.” Imom al-Qarofiy: U “al-Furuq” asarida shunday degan: “Agar urf bir joydan ikkinchi joyga farq qilsa, u yerdagi hukm ham o‘zgarishi lozim. Chunki hukm urfga bog‘liq bo‘lganida, urf o‘zgarsa, hukm ham o‘zgaradi<sup>42</sup>. ”

Shofeiy mazhabi : Shofeiy larga ko‘ra, urf shar’iy hukmlarni istinbot qilish asoslaridan biri bo‘lib, ko‘plab hukmlar unga binoan chiqariladi. Urfga murojaat qilish islomiy fiqhning besh asosidan biri bo‘lib, mazhab imomlarining matnlarida bu masala tasdiqlangan. Bundan tashqari, urf va odatlarga asoslangan fatvolarning o‘zgarishiga sabab bo‘luvchi dalillardan biri sifatida ham e’tirof etilgan. Odamlar uchun qiyinchilik tug‘diradigan hukmlarni davom ettirish ham shu asosda baholanadi.

Imom al-Haramayn al-Juvayniy va Imom G‘azzoliy urf va uning hukmlari borasida qimmatli matnlar qoldirgan. Quyida ularning ayrim fikrlariga to‘xtalamiz: Al-Juvayniy urfnini tushunishda ehtiyot bo‘lish kerakligini ta’kidlab, shunday deydi: “Har qanday hukmga duch kelgan inson uni tushunishda xalq orasidagi urfnini e’tiborga olishi lozim. Chunki ba’zan odamlar bir so‘z orqali muayyan ma’noni anglatadilar, bu esa faqat urfnini bilgan kishilargagina ayon bo‘ladi. Har qanday umumiy ibora o’sha hududdagi odamlarga xos urf va odatlarga qarab talqin qilinadi.”

Ayolning nafaqasi: Nafaqa u ayolning turmush kechirishi uchun zarur bo‘lgan oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy va boshqa ehtiyojlarini qoplaydigan mablag‘dir. Bu, nikoh tufayli arning zimmasiga tushadigan ikkinchi eng muhim mas’uliyat hisoblanadi. Ayol o‘zining, erining yoki boshqa oila a’zolarining nafqasini ta’minlashga majbur emas, hatto boy bo‘lsa ham. Islomda faqat er oila boquvchisidir. Agar u kambag‘al bo‘lsa ham, oilasini boqish uchun ishlashi shart. Nafaqa masalasi juda keng qamrovli bo‘lib, ko‘plab muhim jihatlarni o‘z ichiga oladi.

Ayolning huquqlarida urf-odatning o‘rni: Yuqorida turli fiqhiy mazhablarning ayol huquqlariga munosabati bayon etildi. Ko‘rinib turibdiki, urf-odatlarning o‘rni juda katta bo‘lib, ular fiqhiy hukmlarga ham ta’sir ko‘rsatadi. Ba’zan urf bir huquqni yaratishi, ba’zan

<sup>41</sup> Muhammad Abu Zahra, “Makanat al-‘Urf fi ad-Da‘wah al-Islamiyya,” – Bag’dod: Matba‘at al-Irshad, 1392.–B. 18.

<sup>42</sup> Shihab ad-Din ibn Ahmad ibn Idris al-Maliki al-Qarafi, “Al-Furuq - Anwar al-Buruq fi Anwa’ al-Furuq”– Beirut: Alam al-Kutub, 2002.–B. 103.



esa uni yo‘q qilishi mumkin. Urf-odatning mahr miqdoriga ta’siri: Kitob va sunnatda mahrning eng yuqori miqdori belgilanmagan, shuning uchun bu masala jamiyat urf-odatlariga bog‘liq. Turli joylarda va turli zamonlarda mahr miqdori har xil bo‘lishi tabiiy. Mahrning shakli va miqdori odatga qarab o‘zgaradi: Boy va kambag‘al o‘rtasidagi farq, Oilalarning kelishuvi, Hududiy odatlar. Demak, mahr belgilashda ham urf katta ahamiyatga ega.

Mahr miqdoriga urf-odatning ta’siri : Islom erkakka ayolga nikoh muqobilida bir tuhfa sifatida mahr berishni va unga bo‘lgan mehr-muhabbatini namoyish qilishni buyurgan. Agar uning muhabbat qimmatbaho narsalar bilan ifodalananadigan bo‘lsa, u bunga haqlidir. Mahrning yuqori chegarasi yo‘q, chunki Alloh taolo aytadi: «وَأَنِيمْ إِحْدَاهُنَّ قَنْطَارًا فَلَا تَلْخُدُوا مِنْهُ» «شَيْئًا أَكْثَرُونَهُ بُهْتَانًا وَإِنْمَا مُبِينًا» “Va siz ulardan biriga katta miqdorda mehr bergan bo‘lsangiz ham, uni qaytarib olmang. Nima, siz uni tuhmat va ochiq gunoh bilan olasizmi?” (Niso, 20). Bu oyat faqat yuqori miqdordagi mahri nazarda tutmaydi, balki ko‘p mol-mulkning kinoyasi sifatida kelgan. Kamida beriladigan mahr borasida esa fiqh olimlari o‘rtasida tafovut mavjud: Sahl ibn Sa’d Sa’diydan rivoyat qilinishicha, Rasululloh (s.a.v.) nikohlanmoqchi bo‘lgan kishilarga: “Qidiring, hatto temir uzuk bo‘lsa ham” deganlar. Imomiya va shof'iyy mazhablariga ko‘ra, eng kam miqdor uchun cheklov yo‘q. Agar biror cheklov bo‘lsa, Rasululloh (s.a.v.) uni bayon qilgan bo‘lar edilar.

Imom Abu Hanifa va Imom Molik esa qamida beriladigan mehri belgilashgan: Imom Abu Hanifa uni o‘n dirham, Imom Molik esa uch dirham deb belgilagan. Bu miqdor o‘g‘il uchun belgilangan nisobga qiyoq qilingan<sup>43</sup>. Demak, mahr ayolga erkak tomonidan berilishi lozim bo‘lgan haqiqatdir, ammo shariat uning aniq miqdorini belgilamagan. Mahrning miqdori jamiyat urf-odatlariga qarab farq qiladi. U jamiyatdagi barcha qatlamlarni o‘z ichiga oladi. Boy va kambag‘al, ilmli va johil kishilarni. Har bir inson o‘zining imkoniyatlari va urf-odatlariga muvofiq mahr belgilaydi. Mahr ayoldan ayolga farq qiladi: nasl-nasabi yuqori bo‘lgan ayol bilan oddiy ayol, boy ayol bilan kambag‘al ayol, chiroyli ayol bilan xunik ayol uchun beriladigan mahr miqdori turlicha bo‘lishi mumkin. Zamonaviy jamiyatda ayollarning ta’lim olishi ularga oldin bo‘lmagan qadr-qimmat va mavqeni taqdim etdi.

## XULOSA

Islom fiqhida, xususan Ahlus-Sunna mazhablarida, nikoh masalalari faqat matn (nas) bilan emas, balki urf, ya’ni jamiyatda qaror topgan odat va amaliyotlar bilan ham chuqr bog‘liqdir. Urf shariatda qat’iy belgilab qo‘yilmagan masalalarda hukm chiqarishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Bu, ayniqsa, nikohga oid ijtimoiy va ma’naviy jihatlarda yaqqol namoyon bo‘ladi.

Ayolning mahr va nafaqa olish huquqi, unga ko‘rsatiladigan hurmat, er-xotin o‘rtasidagi o‘zaro muomala va ma’naviy tinchlik — bularning barchasi shariat ko‘rsatmalari bilan bir qatorda mavjud urf bilan ham muvofiqlashtiriladi. Chunki urf insonlar ehtiyojini, ijtimoiy

<sup>43</sup> Fahr ad-Din az-Zayla‘i al-Hanafi, Tabyin al-Ḥaqa‘iq Sharḥ al-Kanz ad-Daqa‘iq, 2-jild. – Bag’dod: Maktabat al-Quds, 2015, 136-bet.



o‘zgarishlarni va madaniy qadriyatlarni inobatga olgan holda muomalani yanada hayotga yaqinlashtiradi.

Ahlus-Sunna olimlari — Imom Abu Hanifa, Imom Malik, Imom Shofe’iy va Imom Ahmad ibn Hanbal — urfnii fiqhiy dalil sifatida qabul qilganlar va uni qo‘llashda shariat asoslariga zid kelmaslik tamoyiliga qat’iy rioya qilganlar.

Bugungi kunda jamiyat o‘zgarib bormoqda, insonlarning ruhiy, axloqiy va ijtimoiy ehtiyojlari ham yangilanmoqda. Shunday sharoitda ayollarning nafaqat moddiy, balki ma’naviy huquqlarini e’tirof etish va ularga amaliy ta’milot yaratish Islomning dolzarb va barhayot tamoyillaridan biridir. Bunda urfnining ijobiy va shariatga zid bo‘lmagan shakllarini e’tiborga olish, fiqhiy yondashuvni zamonaviy hayotga moslashtirish imkonini beradi.

Shu bois, nikohga oid hukmlarda urfnining o‘rnini beqiyos bo‘lib, u shariatning insoniylik, adolat, hurmat va tinchlikka asoslangan ruhiga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR

1. Muhammad Mo‘in, Farhang-i Mo‘in, Amir Kabir Tehron – 4j. Tehron: Entesharat-e Elmi va Farhangi, 1351.– B. 267.
2. Muhammad Mustafo Zahiliy, “Al vajuz fi usul al fiqh”. Suriya: Dar al-Maktabi, 2006.– B. 265.
3. Zaydon, Abdulkarim., “Al vajuz fi usul al fiqh”. – Bag’dod: Maktabat al-Musanna, 1976.– B. 258.
4. Abdulkarim Zidan, “Al-Vajiz fi Usul al-Fiqh” – Bag’dod: Maktabat al-Muthanna, 1976.– B. 258.
5. Bosim Abdulloh Ubayd, “Athar al-‘Urf fi at-Tashri‘ al-Islami Dirasah Ta’siliyyah” – Misr: Jamiatu al Azhar, 2017– B. 32.
6. Muhammad Abu Zahra, “Makanat al-‘Urf fi ad-Da‘wah al-Islamiyya, ” – Bag’dod: Matba‘at al-Irshad, 1392.– B. 18.
7. Shihab ad-Din ibn Ahmad ibn Idris al-Maliki al-Qarafi, “Al-Furuq - Anwar al-Buruq fi Anwa’ al-Furuq” – Bayrut: Alam al-Kutub, 2002.– B. 103.
8. Fahr ad-Din az-Zayla‘i al-Hanafi, Tabyin al-Ḥaqa‘iq Sharḥ al-Kanz ad-Daqa‘iq, 2-jild. – Bag’dod: Maktabat al-Quds,.2015, 136-bet. .